

TAYM-MENEJMENT VA TA'LIM SAMARADORLIGI: VAQTNI BOSHQARISH KOMPETENTSIYASI**Bekniyazov Bayram Saparbaevich** – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*b.s.bekniyazov@gmail.com*Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarni qayta tayorlash va malakasini oshirish instituti Nukus filiali***ТАЙМ-МЕНЕДЖМЕНТ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОБУЧЕНИЯ:
КОМПЕТЕНТНОСТЬ В УПРАВЛЕНИИ ВРЕМЕНЕМ****Бекниязов Байрам Сапарбаевич** – *доктор философии по педагогическим наукам, доцент**Нукусский филиал Института переподготовки и повышения квалификации специалистов
физической культуры и спорта***TIME MANAGEMENT AND EDUCATION EFFICIENCY: TIME MANAGEMENT COMPETENCE****Bekniyazov Bayram Saparbaevich** – *Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**Nukus branch of the Institute for Retraining and Advanced Training of Physical Education and Sports*

Tayanch so'zlar: ta'lim tashkilotlari, rahbarning ish vaqti, boshqaruv faoliyati, taym-menejment texnologiyasi, rejalashtirish.

Rezyume. Mazkur maqolada umumta'lim maktab rahbarlari boshqaruv faoliyatida taym menejment ko'nikmalarini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari ilmiy adabiyotlar asosida har tomonlama tahlil qilinadi. Ta'lim muassasalari rahbarlarida taym-menejment kompetentsiyalarini shakllantirish masalalari yoritilgan.

Ключевые слова: образовательные организации, рабочее время руководителя, управленческая деятельность, технология тайм-менеджмента, планирование.

Резюме. В данной статье на основе научной литературы всесторонне анализируются научно-теоретические основы формирования навыков тайм-менеджмента в управленческой деятельности руководителей общеобразовательных школ. В статье освещаются вопросы развития навыков тайм-менеджмента у руководителей образовательных учреждений.

Key words: educational organizations, manager's working hours, management activities, time management technology, planning.

Summary. This article, based on scientific literature, comprehensively analyzes the scientific and theoretical foundations for developing time management skills in the management activities of general education school principals. The article covers the development of time management skills among heads of educational institutions.

Kirish. Uzlusiz ta'limning poydevori hisoblangan umumiy o'rta ta'limni rivojlantirish, jamiyat va shaxs ehtiyojlarini to'laqonli qondirish hamda ta'lim jarayoni ishtirokchilariga zaruriy va etarli sharoitlarni yaratish mazkur sohaning rahbar va pedagogik xodimlaridan taym menejment ko'nikmasiga ega bo'lishni shiddat bilan o'zgarayotgan davrning o'zi taqoza qilmoqda. Ayniqsa, zamonaviy ta'lim tashkiloti rahbariga uning oliy ma'lumoti, komp'yuter va internet saytlaridan foydalana olishi, keng qamrovli bilimiyu vaqtini unumli boshqarishi etarli emas. Bularga qo'shimcha ravishda rahbar xodim teran fikrli, aqlli bo'lishi va qimmatli vaqtini tejay bilishi zarur. Shu o'rinda eslatmoq kerakki, har bir qabul qilingan noto'g'ri qaror vaqt kushandasidir. Umumta'lim maktab rahbarlari boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishda taym-menejment texnologiyasining pedagogik imkoniyatlarini aniqlash bugingi pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biridir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Maktab rahbarlarida taym menejment ko'nikmasini shakllantirish muammosini ilmiy tahlil qilishdan avval vaqt kompetentsiyasini falsafiy va psixologik-pedagogik kategoriya sifatidagi xususiyatlarini ko'rib chiqish zarur. Vaqt kompetentsiyasi - psixologik vaqtning o'lchashning asosiy birligi bo'lib, u inson tajribasini o'tmish, hozirgi va kelajak vaqt bo'laklariga taqsimlaydigan kognitiv jarayonlarga asoslanadi [3]. Vaqt kompetentsiyasi tamoyillarining falsafiy maqomi masalasi materiyaning o'z-o'zidan harakatlanishi va o'z-o'zidan rivojlanishi nazariyasi bilan chambarchas bog'liq. Vaqt kompetentsiyasi tushunchasi materiya rivojlanishining ichki manbalari

haqidagi falsafiy ta'limotga asoslanadi, bu esa tashqi qonuniyatlarga mos keladigan ichki ziddiyatlarning ustun rolini ko'rsatish imkonini beradi. Vaqt kompetentsiyasi deganda shaxsning sifatlariga asoslangan ko'nikmalari tushuniladi.

Tadqiqot muammolari bo'yicha ilmiy adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, vaqt kompetentsiyasi shaxsning psixologik xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u «Men» konsepsiyasida to'plangan bo'lib, u shaxsning bilimlari, tasavvurlari va ichki kechinmalarining barqaror tizimi sifatida qaraladi, ularda o'zining ma'naviy «Men», ruhiy «Men», ijtimoiy «Men» va jismoniy «Men»ga kiradigan barcha narsaga hissiy-yakka munosabat aks ettiriladi.

L.Ribalko haqli ravishda ta'kidlaganidek, vaqt kompetentsiyasi insonning motivatsiyalangan havaskorligi sifatida o'z salohiyatini ongli ravishda aniqlash, ochish, amalga oshirish, samarali «Men» konsepsiyasini shakllantirish, o'quv-bilish faoliyati jarayonida to'siqlarni bartaraf etish va qiyinchiliklarni yengishga qaratilgan. Vaqt kompetentsiyasi shaxsiy tezaurusi tushunchalarining reflektiv-tuzatuvchi guruhining tarkibiy qismlari: o'z-o'zini tahlil qilish, o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini tartibga solish.

F.Zimbardo konsepsiyasiga ko'ra, shaxsning vaqt kompetentsiyasi bir nechta vaqt bilan bog'liq ko'rsatmalarni o'z ichiga oladi: ijobiy o'tmish; gedonistik hozirgi kun; salbiy o'tmish; fatalistik hozirgi kun va kelajak. F.Zimbardo va J.Boyd tadqiqotlarida «inson shaxsan ega bo'lgan yoki atrofdegilar bilan baham ko'radigan vaqt kompetentsiyasi uning tabiatiga chuqur ta'sir ko'rsatishi

isbotlangan. Bunda vaqtga nisbatan ustanovkalar juda kamdan kam anglanadi [5].

Vaqt kompetensiyasi S.I.Kalinin tomonidan o'z shaxsiy vaqtini boshqa odamlar, o'z ishi, tashkilotdagi ish vaqti bilan bog'lash, muvofiqlashtirish qobiliyati sifatida ta'riflangan. Vaqt kompetentligini shaxsiy maqsadlarni anglash va tartibga solish; o'z vaqtini muntazam ravishda samarali rejalashtirish; vaqtga resurs sifatida qarash; ishni samaraliroq qilish yo'llarini izlash, «energetik o'z-o'zini boshqarish» - mehnat va dam olish nisbati; qat'iy iroda kabi omillar orqali ko'rib chiqishni taklif qiladi [3].

«Baqt kompetentligi» tushunchasini ta'riflashga oid turli yondashuvlar mavjud bo'lib, L.P.Enkova V.I.Denderinaning g'oyalarini tahlil qiladi, uning fikricha, vaqt kompetentligi ta'lim rahbari boshqaruv qobiliyatining tarkibiy qismidir. V.I.Denderinaning so'zlariga ko'ra, rahbarning vaqt kompetensiyasi quyidagilarni o'z ichiga oladi: muammoni ma'lum vaqt doirasida bartaraf etish qobiliyati, maqsadlarga erishishda haqiqiy vaqtni belgilash; vaqt bo'yicha o'zaro ta'sirni optimal qurish qobiliyatidir. Amerikalik olim Piter Druker o'zining «Samarali menejer» asarida menedjerning asosiy xususiyati samaradorlik ekanligini, samaradorlikni oshirishning birinchi yo'li esa vaqtni boshqarish ekanligini ta'kidlagan [2].

Materiallar. Kasbiy kompetentlikda vaqt kompetentligi alohida o'rin tutadi, chunki kasbiy faoliyat jarayonini oqilona tashkil etish, uni vaqt makonida amalga oshirish va samaradorligi unga bog'liq. Maktab rahbarida optimal vaqt kompetensiyasini shakllantirish boshqaruv faoliyati va karyerasini qurishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, chunki vaqt istiqboli kelajak haqidagi tasavvurlar, u haqda o'ylash va o'z hayotini rejalashtirish to'plami sifatida kuchli motivatsion ta'sir ko'rsatishga, inson xulq-atvorini faollashtirishga va tartibga solishga qodir. Pedagogik jamoa qanday vositalar va usullar yordamida vaqtni samarali boshqara olishga layoqatli mutaxassisni emas, balki mehnat bozorining o'zgaruvchanligi, mamlakatdagi siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlarga moslashgan shaxsni tarbiyalashga intiladi.

Psixologik-pedagogik ilmiy manbalarni o'rganish vaqt kompetensiyaning mohiyatini aniqlashda to'rtta asosiy yondashuvni ajratib ko'rsatish imkonini beradi: shaxsiy, faoliyatli, integral (shaxsiy-faoliyatli) va texnik. S.Kulnevich shaxsga yo'naltirilgan ta'limning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganar ekan, vaqt kompetensiyasini rivojlanishning majburiy sharti sifatida tizimga tashqaridan kiritilishi mumkin emasligini ta'kidladi. Bunday yondashuvning o'ziga xos xususiyati ta'lim jarayoni ishtirokchilarining ichki resurslarni – ongning shaxsiy tuzilmalarini anglashidir: tanqidiylik, motivatsiya, refleksiya, kollizionlik, bilvosita avtonomlik va boshqalar.

Mustaqillik shaxsning irodaviy xususiyati sifatida o'z faoliyatini tizimlashtirish, rejalashtirish, tartibga solish va tashqaridan doimiy boshqaruv va amaliy yordamsiz faol amalga oshirish qobiliyatida namoyon bo'ladi va olingan bilimlar, ko'nikmalar va aniq vaziyatlarda harakat qilish qobiliyatining asosi sifatida xotiraning tayyorligi orqali erishiladi. Mustaqillik mezonlari: tashabbuskorlik, tanqidiylik, o'z-o'zini adekvat baholash, o'z faoliyati va xulq-atvori uchun o'z mas'uliyatini his qilish.

Vaqt taqsimotiga nisbatan qator olimlarning munosabatlari, yondashuvlari mavjud. Shulardan eng ko'p tarqalgani Bifrito Faritto yondashuvi hisoblanadi.

Bifrito Faritto taqsimotida vaqtga va bajarilayotgan ishga nisbatan vazifalar to'rtta qismga ajratiladi.

1. Ahamiyatli va tezda bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar. Bunda kundalik ish jarayonida yuzaga keladigan muammolar bo'lib, ular tezda hal etilishi lozim. Bu masalalar tezda hal etilmasa maktabning o'quv va tarbiya jarayonida salbiy oqibatlar yuzaga kelishi va yangi muammolar vujudga kelishi mumkin.

2. Ahamiyatli va tezda bajarilishi shart bo'lmagan vazifalar. Ta'lim muassasining istiqboldagi rejalarini belgilash. Strategik rejalashtirish. Maktabning 5-10 va hato 15 yildan keyingi holati va bunga hozirgi kunda qanday qilib tayyorlanish kerak. Ya'ni bugungi davr talabiga javob beradigan raqobatbardosh sifatli ta'lim berishdir.

3. Ahamiyatsiz, lekin darhol hal etiladigan vazifalar. Xat jo'natish, telefonga javob berish, faks qabul qilib olish va h.k.

4. Ahamiyatsiz va bajarilishi lozim bo'lmagan vazifalar. Gaplashib o'tirish, chekish, ish paytida turli o'yinlarga vaqt ajratish [2:32].

Sotsiologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra menejerning ish vaqti taqsimoti quyidagi tartibga to'g'ri kelar ekan:

Ishdagi odatiy va kunda qaytarilib turadigan muammolarni echishga 80% vaqt ketadi va sarflangan vaqt 20% muvaffiqiyatni keltiradi.	Muhim va strategik muammolarni hal etishga 20% vaqt ketadi va lekin bu mehnat evaziga ta'lim tashkiloti 80% muvaffiqiyatga erishiladi.
--	--

Muhokama. «Taym-menejment» texnologiyasi o'z mohiyatiga ko'ra chuqur pedagogik xususiyatga ega, chunki u:

- o'qituvchi va rahbarning o'zaro hamkorligini o'z ichiga oladi;
- pedagogik jarayon komponentlariga adekvat (o'zaro ta'sirning maqsadi, vazifalari, mazmuni, metodlari, vositalari, shakllari va natijalari);
- vaqtga qadriyatli yondashuvni, vaqt kompetensiyasi fenomenini, o'quv jarayonini shakllantiradi;
- vaqt kompetensiyasining aniq ko'nikmalarini shakllantirish orqali menedjerning shaxsiy o'sishiga hissa qo'shadi.

Vaqt kompetentlikni rivojlantirish mexanizmlarini tadqiq etishning asosiy muammolaridan biri faoliyat natijadorligi bilan bog'liq tayanch komponentlarni aniqlashdir. Bugungi kunda vaqtni tashkil etishning individual usuli samaradorligini oshirishning ikkita yondashuvini ajratib ko'rsatish mumkin – instrumental va subyektiv, ular vaqt kompetentligining qaysi tarkibiy qismlari uni rivojlantirish uchun asosiy hisoblanishi bilan farqlanadi. Instrumental yondashuv vaqtni tashkil etish texnologiyalarini o'zlashtirishni birinchi o'ringa qo'yadi. Subyektiv yondashuv doirasida shaxsning vaqtni ongli tashkil etishga yo'naltirilganligi bilan bog'liq motivatsion va qadriyatli-mazmunli komponentlar ustuvor hisoblanadi.

Shu bilan birga, har qanday faoliyatda vaqtni boshqarish texnologiyalaridan foydalanish va o'zlashtirish katta yordam beradi. Gleb Arxangelskiyning ta'kidlashicha, «vaqtni boshqarish – bu o'zgarmas hayot vaqtidan shaxsiy maqsadlar va qadriyatlarga muvofiq foydalanish imkonini beruvchi texnologiya. Shunday ekan, vaqtni boshqarishning maqsadli vazifasi baxtdir» [1:13].

Vaqt resurslarni to'g'ri boshqarish ta'lim muassasasi rahbarlariga o'z mehnat faoliyatini oqilona, izchil va

xotirjam bajarish imkonini beradi, bu esa o'z navbatida ularning hissiy, ruhiy va jismoniy salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va shubhasiz ta'lim sifatini yaxshilaydi.

Zamonaviy ta'lim rahbari har doim rahbar rejali, vaqt me'yorida bo'lishi, bajariladigan ishlarini vaqt oralig'ida taqsimlashi va ana shu taqsimlangan ro'yxatga ruhan va jismonan tayyor bo'lishi kerak. Demak, vaqt bizning rejalarimiz bilan samarali va natijali bo'lib boradi. Shaxs psixologik muammolarni malakali hal etish orqali rahbar o'z vaqtidan yanada unumli foydalanishda qo'shimcha imkoniyatlarga ega bo'lishi mumkin. Masalan, doimiy shoshilib yurish, belgilangan joyga har doimiy kechikib borishni odatga aylantirib olish ham vaqtga nisbatan munosabatni to'g'ri taqsimotiga salbiy ta'sir qila boshlaydi va bajariyotgan ishdan qoniqish hissi bo'lmaydi. Shoshilib qilingan ish har doim ham samara beravermaydi. Albatta, shoshilish kerak emas, o'ta sekinlik bilan qilingan harakatda ham ma'no yo'q. Har doim shoshilib yurish ham yaxshi oqibatlarga olib kelmaydi. Ko'p muhim ishlaringiz esingizdan chiqishi mumkin. Buning oqibatida ishlaringiz o'lda-jo'lda qoladi. Tez charchaysiz va hech narsaga ulgur olmayapman deb asabiylashasiz. Doimo shoshilib yurish natijasida hosil bo'lgan stress yoki, qo'rquv, ikkilanish, hadiksirash oxirida natijadorlikni his qilishga yoki undan ruhlanishga imkon bermaydi [3:47].

Bajariyotgan ishimizning oxirgi natijasidan mamnun bo'lish ham juda katta ahamiyatga ega. Shunki bu insonga motivatsiya beradi va keyingi yangi-yangi ishlarga undaydigan energiya beradi. Mana shu energiyaning tula hosil bo'lishi uchun esa aynan doimiy shoshilishlarni tark etishimiz kerak. Hayotimizda tig'iz bo'ladigan shoshilinishlarni keltirib chiqaradigan vaziyatlarga jiddiy qarash va har bir bajariladigan ishimizga ertaroq tayyorgorlik bilan uni ma'lum bir vaqt oralig'idagi ijro

joylariga ahamiyat beradigan bo'lsak bu doimiy shoshilish vaziyatlaridan xalos bo'lamiz.

Vaqtни samarali boshqarishga to'siq bo'ladigan yana bir psixologik muammo bu charchash. Inson ko'proq charchagan paytda ham jismonan ham aqlan to'xtaydi. Tana ham o'zining ma'lum bir faoliyati tonusini pasaytiradi. Demak kuchli charchoq holatida ham faoliyat bajarish, ishni yuritishga insonni majburlash demak vaqtning besamar ketishiga, o'tkazilgan vaqtdan natijadorlik ko'ra olmaslikka sabab bo'ladi. Shu bois ham kuchli charchoq holatida qisqa muddatli dam olish tavsiya etiladi.

Keyingi muammo haddan tashqari ko'p vazifalarni o'z zimmasiga olish. Ta'lim tashkiloti rahbarlarini eng qiynaydigan vazifa xodimlarga vaqt taqsimotini to'g'ri bo'lib bera olmasligi, xodimlarga yuklanadigan vazifalarni ham o'zining zimmasiga olib qolishi. Natijada bir necha xodim bajaradigan vazifalar tanho o'zining zimmasida qolib ketishi jismoniy, aqliy va ruhiy uch tomonlama zorig'ishni keltirib chiqaradi. Va bu esa o'z-o'zidan insonda asabiylik holatini, ruhiy kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Xulosa. Shunday qilib, zamonaviy jamiyat ta'lim oldiga hozirgi zamonning o'zgaruvchan sharoitlariga moslasha oladigan, mustaqil ravishda qaror qabul qilishga va tanqidiy fikrlashga tayyor bo'lgan rahbarlarni sifatli tayyorlash vazifasini qo'ymoqda. Ushbu muammoning dolzarbligi psixologiya nuqtai nazaridan ham tasdiqlanadi. Vaqt tanqisligi sharoitida ish yuritish ta'lim rahbari faoliyatida empirik zo'riqishni keltirib chiqaradi, hissiy kechinma bilan ziddiyatga kirishadi, bu esa ta'lim faoliyatning tartibsizlanishiga olib keladi. Vaqt bugungi kunda qadriyat bo'lib, rahbarning o'z mehnatini qanchalik to'g'ri tashkil etishi uning kelajakdagi shaxsiy o'sishiga bog'liq.

Adabiyotlar

1. Архангельский Г.А. Организация времени: от личной эффективности к развитию фирмы. 2-е изд. – Санкт-Петербург: «Питер», 2007.
2. Друкер Питер Ф., Мкервали А. Эффективный управляющий. – Москва: СП «Бук Чембэр Интернэшнл», 2014.
3. Калинин С.И. Тайм-менеджмент: практикум по управлению временем. – Санкт-Петербург: «Речь», 2016.
4. Кузьмина О.В. Типологические особенности временной компетентности личности. // Вестн. Удмурт.ун-та. Сер. Философия. Социология. Психология. Педагогика. 2012. Вып. 1. – С. 30-36.
5. Зимбардо Ф., Бойд Дж. Парадокс времени. Новая психология времени, которая улучшит вашу жизнь. – Санкт-Петербург: «Речь», 2015.